

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

Mansurbek Ne‘matov Ismoil o‘g‘li

**Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU) Ommaviy axborot vositalari yo‘nalishi
magistranti**

mansurmg5699@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401092>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari milliy qonunchilik hujjatlari, xalqaro tajriba va mahalliy tadqiqotchilar izlanishlari asosida o‘rganilgan. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoatchilik nazoratining ahamiyatiga baho berilgan bo‘lib, mamlakatimizda jamoatchilik nazorati institutining qonuniy asoslari yaratilishi turli davrlarga bo‘lib tadqiq etilgan. Sohada tubdan o‘zgarishlar sabab bo‘lishi kutilayotgan islohotlarning ijrosini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qarashlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, inson huquq va erkinliklari, ommaviy axborot vositalari, xalq xohish-istagi, jamoatchilik fikrini o‘rganish.

ABSTRACT

In this thesis, the main stages of the formation and development of public control in the Republic of Uzbekistan are studied on the basis of national legislative documents, international experience and the research of local researchers. The importance of public control in the formation of civil society has been assessed, and the creation of the legal foundations of the institution of public control in our country has been studied in different periods. Views on ensuring the implementation and increasing the effectiveness of the reforms expected to cause fundamental changes in the field are presented.

Keywords: public control, civil society, human rights and freedoms, mass media, popular will, public opinion.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat sifatida qonun ustuvorligi to‘liq ta‘minlangan, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish milliy qonunchilik tizimi va davlat siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi. Mamlakatda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xalq manfaatlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritadi, xalq irodasi va xohish-istagi ular faoliyati yo‘nalishini belgilab beruvchi bosh omil hisoblanadi. Fuqarolar davlat boshqaruvida bevosita yoki o‘z vakillarini saylash orqali bilvosita ishtirok etadi. Shu bilan bir qatorda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari harakatlari qonuniyligi doimiy ravishda fuqarolar va ularning birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari tomonidan nazorat qilib boriladi. Davlat va jamiyat hayoti uchun eng muhim va dolzarb masalalarda jamoatchilik fikri o‘rganib boriladi va umumiyashtirilib davlat dasturlarida o‘z ifodasini topadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lganidan so‘ng mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish uchun ulkan islohotlar amalga oshirildi. Fuqarolik jamiyatining eng asosiy belgisi bo‘lgan jamoatchilik nazorati institutining qonuniy asoslari yaratildi va mustahkamlandi. 2018-yilda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganidan so‘ng fuqarolarning davlat boshqaruvida faol

ishtirokini ta'minlash hamda huquqiy ongini o'stirish borasida ulkan islohotlar amalga oshirildi. Jamoatchilikning davlat budjeti nazoratidagi ishtiroki ta'minlandi va tashabbuskor loyihalarni amalga oshirishi huquqiy jihatdan kafolatlandi. Bugungi kunda barcha sohalar kabi jamoatchilik nazoratida olib borilayotgan islohotlarning darajasi va samaradorligiga baho berish, ularning ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi jamoatchilik nazorati rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jamoatchilik nazorati tushunchasi tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning ilmiy-nazariy asoslari XVIII-XIX asrlarda yaratilganiga guvoh bo'lish mumkin. Biroq, ta'kidlash joizki, ilmiy hamjamiyatning fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi hamda uning hokimiyat institutlari bilan ta'sirlashuviga oid ilmiy mulohazalar undan ancha oldin paydo bo'lgan. Fuqarolik jamiyati va uning boshqaruv bilan bog'liq nazorat funksiyalariga oid qarashlar jamoatchilik nazoratini o'rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Jamoatchilik nazorati haqidagi qarashlarning ilk kurtaklari uzoq Antik davrlarga borib taqaladi.

Jamoatchilik nazoratining dastlabki ko'rinishlari va u haqidagi qarashlar ilk davlatchilikning vujudga kelishi va uning jamiyat bilan munosabatlari asnosida vujudga kelgan. O'rta asrlar ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir Abu Nasr al-Forobiyning "Fozil odamlar shahri" kitobida[1] adolatli fozil jamiyat nazariyasi ilgari suriladi hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va nazorati borasida bir qator qimmatli fikrlar bildiriladi. Mazkur kitobning 15-bobida insoniy jamiyatlarning turlari, fozil jamiyat, fozil Shahar va uning qanday nazorat qilinishi va uning turlari haqida mulohaza yuritiladi. Siyosiy qarashlar doirasida jamoatchilik nazorati Sh.L. de Monteskyu, T. Gobbs va J.Lokk kabi faylasuflar tomonidan ilmiy asosda izohlangan. Ular hokimiyatning fuqarolar tomonidan nazorat qilinishi turli normalariga ahamiyat qaratdilar. Saylovlar, qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijro etuvchi hokimiyat ustidan nazorati, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashda fuqarolarning turli sohalarda faolligi va bu orqali davlat boshqaruvida ishtiroki muhim ekani ta'kidlangan.

Jamoatchilik nazorati davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar asosida uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay, uni aynan shu shaklda ilmiy tushuncha sifatida fanga kiritgan olim ijtimoiy psixologiya asoschilaridan biri G.Tard hisoblanadi. Fransuz olimining talqiniga ko'ra, jamoatchilik nazorati tushunchasi – biror huquqbuzarning xulq-atvorini yana normaga qaytarish uchun qo'llaniladigan kompleks usullar hisoblanadi. U o'zining "Qiyosiy jinoyat" asarida[2] jinoyatchilarni jamiyatga qayta integratsiya qilishda taqlid qilish va ijtimoiy o'rganishning ahamiyati katta ekanini ta'kidlaydi. Ushbu asarida Tard, shuningdek, jinoyatchilikning ijtimoiy nazorat orqali qanday boshqarilishi haqida fikr yuritadi. Bu boradagi keyingi izlanishlar natijasida jamoatchilik nazorati tushunchasi ancha keng ma'noni o'z ichiga oladigan bo'ldi. Amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Parkning ijtimoiy nazorat bo'yicha tadqiqotlari jamoatchilik nazorati tushunchasining keng qamrovda ishlatilishiga xizmat qildi. Ularning jamoatchilik nazoratiga bergan ta'rifida bunday nazorat biror shaxsning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga moslashtirish uchun unga ko'rsatiladigan ta'sirni bildiradi[3].

Jamoatchilik nazorati jamiyat hayotida o'zini o'zi tartibga solish usuli sanaladi. Ijtimoiy sohada mazkur nazorat usuli tartib va barqarorlikni ta'minlash uchun biror tizimning tarkibiy qismlari tomonidan qonun hujjatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ijtimoiy

tuzumning mohiyati va turi jamoatchilik nazoratining mohiyati, mazmuni va yo'nalishini belgilab beradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, jamoatchilik nazorati ibtidoiy va arxaiik jamiyatlarda hozirgi zamonaviy jamiyatlarga qaraganda mutlaqo boshqacha ko'rinishda bo'lgan. Ijtimoiy nazorat ibtidoiy va arxaiik jamiyatlarda oddiy kechgan bo'lsa, zamonaviy sanoatlashgan jamiyatlarda u murakkablashib borgan.

“Ijtimoiy shartnoma” konsepsiyasini ilgari surgan J.J.Russo davlat tomonidan hokimiyat vakolatlari fuqarolar manfaatlarini inobatga olmagan holda qo'llanilishi ijtimoiy shartnomaga zid bo'lishini bildirgan. Shu nomdagi asarida olim fuqarolar o'rtasida hamjihatlik va tartib o'rnatilishi va jamiyat manfaatlarini uchun ba'zi tabiiy huquqlarini berishi kerak bo'lganini ta'kidlaydi[4]. Natijada davlat shakllanadi va ijtimoiy shartnoma vujudga keladi. Shuningdek, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi davlat va jamiyat rivoji uchun muhimligini ta'kidlaydi. Fuqarolar o'z hukumatlarini saylashda, qonunlarni ishlab chiqishda va davlat boshqaruvida ishtirok etishi lozim. Bu orqali esa ijtimoiy shartnoma va umumiy iroda amalga oshadi.

A.de Tokvil demokratik jamiyatlarda xalq nazorati ahamiyatiga yuqori baho bergan siyosatshunoslardan biridir. U fuqarolik jamiyati institutlari demokratik nazoratning muhim elementlaridan ekanligini va bunday institutlar davlat hokimiyatining suiiste'mol qilinishini oldini olishini ta'kidlagan. Y.Habermas fanga “jamoatchilik sferasi” tushunchasini kiritgan, bu orqali fuqarolar davlat hokimiyati ustidan nazoratni amalga oshirishini aytgan.

V.Gegelning fikriga ko'ra, davlatda tartibni saqlash va jamoatchilik manfaatlarining inobatga olinishi fuqarolarning hokimiyat vakillari noqonuniy harakatlari va o'zboshimchaliklaridan himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolar davlat boshqaruvida faol ishtirok etishlari orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari fuqarolar oldida javobgar bo'lishi, o'z faoliyatini ochiq va shaffof olib borishi kerak, shunda fuqarolar davlat organlari harakatlarini baholash imkoniga ega bo'ladi.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda nazorat subyektlaridan biri ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. E.Tofler va D.Bell kabi olimlar insoniyatning tobora axborotlashgan jamiyatga o'tib borishi va unda ommaviy axborot vositalarining o'rniga baho bergan[3]. Ular tadqiqotlarida axboriy jamiyatning uch holati, uning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatda ommaviy axborot vositalarining o'rni qanday ekani va OAVning mohiyatiga ta'sir ko'rsatadigan texnologik o'zgarishlar haqida fikrlarini bayon qiladi. Toflerning fikriga ko'ra, texnologik taraqqiyot va ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning erkin axborot olish imkoniyatlari kengayadi va bu odamlarning qarorlarni mustaqil chiqarishiga olib keladi. Bunday o'zgarishlar demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Sohaga oid ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik nazorati tushunchasi (instituti) turlicha talqinlarda ifodalangan. Axborot va kommunikatsiya nazariyalari bo'yicha taniqli rus olimi A.V.Sokolovning versiyasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik nazorati demokratiyaning asosiy xususiyatlaridan biri, u davlat organlari harakatlaridan jamoatchilikni xabardor qilish faoliyatidir[5].

Mahalliy olimlardan biri B.I.Ismoilovning talqiniga ko'ra, jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat fuqarolari va ularning birlashmalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan nazorati hisoblanadi[6]. Uning fikricha, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlari bilan bir qatorda markaziy davlat hokimiyati va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligi muhim shakllaridan biridir[6].

METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati institutining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari hamda uning huquqiy asoslarining yaratilishi mavzusini o'rganishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, mantiqiy, analiz, sintez va prognozlash metodlaridan foydalaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“O'zbekistonda jamoatchilik nazoratiga oid qonunchilik normalarini takomillashtirish”, deb nomlangan huquqshunos Sh.G'.Bafayevning dissertatsiyasida mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining vujudga kelishi va rivojlanishini to'rtta katta bosqichga bo'lgan holda o'rganiladi[7].

Birinchi bosqich – 1991–2000-yillar. Mazkur bosqich O'zbekiston Respublikasida milliy davlatchilikning shakllanish bosqichi deya nomlanadi. Asosan, “kuchli davlat” tushunchasi bilan tavsiflanadigan ushbu bosqichda davlat suverenitetini mustahkamlash hamda mamlakatning hududiy yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilingan. Davlat – asosiy islohotchi tamoyili asosida davlat islohotlar taqdiri uchun barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Shu sababli rivojlanishning ushbu bosqichida davlatning nazorat funksiyalari kuchaydi.

Shu bilan bir qatorda, birinchi bosqichda mamlakatda vujudga kelayotgan fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari yaratilgani tahsinga sazovor. Bu davrda O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi, “Jamoat birlashmalari to'g'risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi, “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonunlari qabul qilindi. Tadqiqotchining fikricha, aynan shu bosqichda, turli xil siyosiy institutlar, mafkuralar va qarashlarga asoslangan yangi demokratik siyosiy tizimning asoslari, shuningdek, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda keng ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Ikkinchi bosqich – 2001–2010-yillar. Ushbu bosqich O'zbekistonda “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati”ga o'tish prinsipi asosida fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Referendum yakunlari va davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida”gi, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi Konstitusiyaviy qonunlari, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi, “Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida”gi (yangi tahrirda), “Jamoat fondlari to'g'risida”gi, “Axborotlashtirish to'g'risida”gi, “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi, va boshqa bir qator qonunlarning mazkur bosqichda qabul qilinishi natijasida jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari yaratildi.

Uchinchi bosqich – 2011–2016-yillar. Ushbu bosqich O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va demokratik islohotlarning chuqurlashuvi bilan tavsiflanadi. Jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari takomillashtirilishi ham shu bosqichda amalga oshirildi. Jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asos kuchaytirildi.

To'rtinchi bosqich – 2017-yildan boshlanib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu bosqich chinakam ma'noda jamoatchilik nazoratining rivojlanishidagi muhim davr hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan e'tirof etilgan "xalq davlat organlariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili doirasida amalga oshirilmoqda. Sh.G'.Bafayevning ta'kidlashicha, ushbu falsafiy konsepsiya 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining mohiyatini tashkil etib, uning doirasida O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Sh.Sh.Jahonov fuqarolarning jamoatchilik nazorati jarayonlariga nisbatan faol munosabatda emasligi hamda ularning safarbarlik darajasi pastligi jamoatchilik nazorati samaradorligiga ta'sir etadigan omil emas, deb hisoblaydi. Tadqiqotchiga ko'ra, jamoatchilik manfaatlarining sust ifoda etilishi ham xalq nazorati samaradorligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Jamoatchilik nazorati funksiyalari fuqarolik jamiyatining o'ziga xos funksiyalari sohasiga to'liq mos keladi. Me'yoriy-huquqiy bazaning zaifligi va jamoatchilik nazorati institutiga nisbatan ishonchning pastligi nodavlat sektorning faol emasligini bildirmaydi[8].

Aholining fuqarolik jamiyatiga bo'lgan munosabati, jamoatchilik nazoratiga keng jamoatchilikning jalb etilganligi holati, aholining siyosiy madaniyati qay darajada ekani va fuqarolarning davlat nazorati organlari bilan o'zaro aloqalari tabiiy jamoatchilik nazorati samaradorligining asosiy omillari bo'la oladi.

Faqatgina tom ma'noda siyosiy va iqtisodiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalari tomonidan chinakam mustaqil, xolis va samarali jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi mumkin. Bunda fuqarolik jamiyatining shakllanishi ta'sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlari tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Deyarli barcha sohalarda tub iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi modernizatsiya sharoitida o'zgarishlar jamoatchilik nazoratini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Aksincha bunday o'zgarishlar jamoatchilik nazorati mazmunida o'zining yuksak ifodasini topmoqda. Jamoatchilik nazorati subyekti bo'lgan har bir fuqaro davlat va jamiyat uchun muhim bo'lgan har bir masalada o'zini chetga olmasligi, buning o'rniga mas'uliyatni o'z bo'yniga olib davlat organlaridan o'z majburiyatlarini to'lig'icha ado etishlarini talab qilishga haqli.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratining shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, tarixan juda qisqa davrda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va ta'sirchan jamoatchilik nazorati institutini barpo etishda ulkan islohotlar amalga oshirildi. Shu kunga qadar mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini yaratish uchun salmoqli harakatlar amalga oshirildi, qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini faollashtirishda strategik qarorlar qabul qilindi. Jamoatchilik nazorati qonunchilik tizimini shakllantirish uchun soha to'rt bosqichni bosib o'tdi. Biz ushbu bosqichlarni o'rganib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Xalqaro, mintaqaviy va mahalliy miqyosda jamoatchilik nazorati institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda bu boradagi nazariy bilimlarni boyitish zarurati mavjud. Buning uchun jamoatchilik nazorati rivojlanishiga oid izlanishlar sonini ko'paytirish, kitob va qo'llanmalar nashr qilish uchun tashabbuslarni

qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi.

2. Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish mavjud qonunchilik bazasini tahlil qilish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolarning faolligini oshirishda samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu maqsadda mavjud qonunchilik hujjatlarini tahlil qilib, ular amalda bo'lgan yillar davomida ko'zlangan maqsadga erishishga qay darajada ta'sir qilganini tahlil qilish hamda ularning ijrosi ta'minlanganini o'rganish, tahlil natijalarini kelgusi qonun loyihalarini tayyorlashda foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni asosida tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" da belgilangan maqsad va vazifalar asosida qabul qilinishi rejalashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni asosida tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" Strategiyasida maqsadlarida ko'zlangan harakatlarni amalga oshirish O'zbekistonda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini shakllantirish uchun islohotlarning to'rtinchi bosqichini yakunlab beradi. Shu yillar davomida xalq nazoratini o'rnatishga oid qarorlarning samaradorligini aniqlash maqsadida ushbu hujjatlarning ijrosini o'rganish tavsiya etiladi.

4. O'zbekistonda jamoatchilik nazorati shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarida ommaviy axborot vositalarini roli va ta'siri darajasini aniqlash, bu borada izlanishlar miqdorini oshirish, tashabbuslarni rag'batlantirish tavsiya etiladi.

5. Yuqoridagi muhim strategik qarorlardan iborat ikki Strategiya asosida O'zbekistonda jamoatchilik nazorati institutining yanada jadal rivojlanishini ta'minlash maqsadida keyingi bosqichlarda qabul qilinishi kerak bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish maqsadida keyingi rejalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Unutmaslik lozimki, qabul qilinayotgan har qanday normativ-huquqiy hujjat va strategik qarorlarning samaradorligi ularning fuqarolar tomonidan befarq qabul qilinmasligi, ularning ushbu normalarning ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishi hamda nazorat o'rnatishi va mas'uliyat bilan faol fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishiga bog'liq.

References:

1. <https://library.tsdi.uz/storage/books/March2022/gXGRWsIch5VUiruoJBh4.pdf>
2. <https://archive.org/details/lacriminalitco00tarduoft>
3. Zoirova M.N. (2021). Jamoatchilik nazoratida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish mexanizmlari. nomzod...dis.avtoref. –Toshkent, 2021.
4. https://oll-resources.s3.us-east-2.amazonaws.com/oll3/store/titles/638/Rousseau_0132_EBk_v6.0.pdf
5. Do'stjonov T., Xasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004.
6. Ismoilov B.I. (2007). Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari / O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: TDYUI.
7. Бафаев Ш.Г. (2021). Совершенствование законодательных норм об общественном контроле в Узбекистане. номзод...дис.автореф. –Тошкент.

8. Jahonov Sh.Sh. (2022). Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda elektron ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari. “O‘zbekiston va BMT: o‘zaro hamkorlik va barqaror taraqqiyot” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi.